

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT
SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/2025.27.12.S.01.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI

A’ZAMOVA KUMUSH SALIM QIZI

**INSON QADRINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOIIY DAVLAT
MEXANIZMLARINING REGULYATIV FUNKSIYASINI
RIVOJLANTIRISH**

22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

**Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Oglavlениye avtoreferata dissertatsii
doktora filosofii (PhD) po sotsiologicheskim naukam**

**Contents of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)
on sociological sciences**

A'zamova Kumush Salim qizi

Inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy davlat mexanizmlarining regulativ funksiyasini rivojlantirish..... 3

Аъзамова Кумуш Салим кизи

Развитие регулятивной функции механизмов социального государства в повышении человеческого достоинства..... 29

Azamova Kumush Salim kizi

Development of the regulatory function of the mechanisms of the social state in increasing human dignity..... 57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Cpisok opublikovannykh rabot
List of published works 62

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT
SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/2025.27.12.S.01.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI

A’ZAMOVA KUMUSH SALIM QIZI

**INSON QADRINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOY DAVLAT
MEXANIZMLARINING REGULYATIV FUNKSIYASINI
RIVOJLANTIRISH**

22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

**Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/S140 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.dsba.uz) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Karimov Bobir Sharopovich
sotsiologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Gaffarova Mavlyuda Kurbanbayevna
sotsiologiya fanlari doktori

Muxtarov Azamat
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

"Ijtimoiy fikr" Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi huzuridagi DSc.04/2025.27.12.S.01.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "14" soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45-uy. Tel.: 0(371) 232-60-47; faks: 0(371)239-17-83, e-mail: info@dba.uz) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Ma'muriy binosi, 2-qavat, 202-xona).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (№388 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45-uy. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Ma'muriy binosi, 2-qavat, 202-xona. Tel.: 0(371) 232-60-47; faks: 0(371)239-17-83.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "04" avgust kuni tarqatildi.

(2026-yil "04" avgustdagi 04/08 raqamli reestr bayonnomasi.)

M.B. Bekturodov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

Sh.M. Sodiqova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

T.B. Matibayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi sotsiologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida ijtimoiy davlat omilining tobora mustahkamlanib borishi inson manfaatlarini, uning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Bu boradagi xalqaro va milliy sa'y-harakatlar ijtimoiy davlat institutlarining regulativ funksiyasini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni tobora kuchaytirib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Yoshlar-2030"¹ strategiyasi, "Inson huquqlari bo'yicha strategiya", "Barqaror taraqqiyot sohasidagi maqsad va vazifalar", "Gender tenglikka erishish strategiyasi", "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi", "Millatlararo munosabatlar sohasidagi konsepsiya" kabi loyihalar jahonda ko'plab mamlakatlarning bosh maqsadlariga aylanib bormoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida aholini kambag'allikka tushib qolish ehtimollarini kamaytirish, jamiyatda ijtimoiy tengsizlik darajasini kamaytirish, davlat va jamiyat boshqaruvida ijtimoiy adolat tamoyillarini keng joriy qilish, ijtimoiy davlat tamoyillariga rioya qilish zarurati birlamchi yechim ekanligini ilgari surmoqdalar. Bugungi kunda ko'plab davlatlar ijtimoiy davlat tamoyillarini davlat va jamiyat boshqaruviga uyg'unlashtirish maqsadida o'z konstitutsiyalarida mustahkamlamoqdalar.

Yangi O'zbekistonda inson qadri va qimmatini ulug'lash oliy qadriyat sifatida belgilanib, 2017-2025-yillar davomida barcha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda inson qadrini yuksaltirish, shaxs va uning mulkning daxlsizligini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini tubdan isloh qilish, inklyuziv jamiyat barpo etish, har bir insonga e'tibor, har bir fuqaroning o'z qobiliyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatini kengaytirish, ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik va sport sohalarida yangilangan tizim joriy qilinib, aholi ijtimoiy hayotining farovonlashib borayotgani xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aytganidek, "Biz barpo etayotgan Yangi O'zbekiston uchun inson qadri va xalq manfaati hamma narsadan ustundir.

Shu bois inson qadrini yuksaltirish haqiqatda davlat hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy burchi va ustuvor vazifasi bo'lmog'i shart"². Shu jihatdan inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy davlat mexanizmlarining regulativ funksiyasini rivojlantirish masalasini sotsiologiya fani nuqtayi nazaridan yaxlit ilmiy muammo sifatida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi Farmonlari hamda mavzuga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ About Youth 2030, the UN Youth Strategy. URL: <https://www.un.org/youthaffairs/en/youth/2030/about>

² Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. 6-tom. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. M 54 – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – B.485.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratiya va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish yo‘nalishi” doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Davlatchilik tarixidan ma’lumki, jamiyatdagi tengsizlik, davlat va jamiyat boshqaruvining turlicha bo‘lishi inson qadrini turlicha bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Shu sababdan inson qadrini yuksaltirish va ijtimoiy davlat barpo etish masalasi qadimdan insoniyat uchun dolzarb muammo sifatida qaralgan. Inson, uning qadr-qimmati, jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasi haqidagi ilk ta’limotlarni “Avesto”da shuningdek, antik davr faylasuflaridan Suqrot, Aflotun va Arastu³, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Homid G‘azzoli, Zakariyo ar-Roziy, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi Sharqning buyuk mutafakkirlari o‘zlarining asarlarida batafsil bayon etilgan⁴.

Xorijiy olimlardan V.Gegel, I.Kant, M.Sheler, E.Fromm, Z.Freydning asarlarida ijtimoiy davlat fenomenini insoniy munosabatlarni yaxshilash imkoniyatlari tadqiqot obyektidan kelib chiqqan holda yoritilgan⁵. G‘arb mumtoz sotsiologlaridan O.Kont, M.Veber, E.Dyurkgeym, T.Parsons, G.Zimmel, F.Tyonnis, P.Sorokin va G.Spenserlarning asarlarida ijtimoiy davlatda inson qadrini yuksaltirish mexanizmlarining regulativ funksiyasini rivojlantirishga yondosh va yaqin nazariy konsepsiyalar sotsiologik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan⁶.

Mamlakatimiz olimlaridan M.Bekmurodov, A.Umarov, A.Xolbekov, T.Matiboyev, Sh.Sodiqova, T.Narbayeva, Q.Quronboyev, B.Farfiyev, A.Seitov,

³ Юнусов С.А. Справедливость и право во взглядах древнегреческих философов // История государства и права. – 2014. – № 10. – С. 24; Платон, Аристотель. Политика. Наука об управлении государством. — М.: Эксмо, 2017. – С.858. Аристотель. Сочинения в 4-х томах.Т.2. –М.:Мысль,1978. С.-704.

⁴ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Тошкент: Халқ мероси, 1993 й. 83-бет; Абу Ҳомид Ғаззолий. Мукошафат–ул Кулуб (Қалблар кашфиёти) Тошкент: Адолат, 2002 й. 98-бет.; Ибн Сино. Тип конунлари. – Тошкент.: 1978 й. 154-бет.; Абу Райхон Беруний. Асарлар. –Тошкент. Ғафур Ғулом нашриёти, 1996 й. 275-бет.; Ар-Рази. Духовная медицина. — М.: 1992 г. С.-64.; Навоий А. Хамса.–Тошкент. Ғафур Ғулом нашриёти, 1989 й. 244-бет.; Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Учинчи том. Сабаи сайёр. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академиясининг «Фан» нашриёти Тошкент-1992 й. 165-бет; Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: O‘qituvchi NMIU, 2018. – Б.514.

⁵ Гегель. Философия религии в двух томах.Т.1. -М.: Мысль, 1976. — С.-404.; Ницше Ф. Собрание сочинения. Т. 2. — М.: Мысль, 1996 — С.-604.; Кон И. Дружба. Этико–психологический очерк. –М.: Политиздат, 1980. С. – 256.; Вардиман Е. Женщина в древнем мире. -М.: Наука, 1990. — С.-336.; Вейлингер О. Пол и характер. — Ростов на Дону, Феникс, 1998. С-608.; Лейбниц Г.В. Сочинения в 4–томах. Т. 4. –М.: Мысль, 1989. С.-508.; Маркузе Г. Эрос и цивилизация. –М.: АСТ, 2002. – С.-528.

⁶ Конт О. Курс положительной философии. В 6 т. -Т.1 Санкт-Петербург: «Посредник», 1900. –С. — 163.; Шелер М. Сущность и формы симпатии. // Horizon. Феноменологические исследования. 2017 г. №2 (12). – С-303-319; Вебер Макс. «Объективность» социально-научного и социально-политического познания. М.: Прогресс, 1990. – С.373. Дюркгейм Э. Метод социологии // Социология. Ее предмет, метод, предназначение / Пер. с фр., составление, послесловие и примечания А.Б. Гофмана. М.: Канон, 1995. – С.115; Парсонс Т. О социальных системах.//Под ред. В.Ф.Чесноковой и С.А.Белановского. — Москва: «Академический Проект». 2002. – 832 с. Зиммель Г. Большие города и духовная жизнь / Пер. с нем. — М.: Strelka Press, 2018. — 112 с. Ионин Л. Г. Социологическая концепция Фердинанда Тённиса // История буржуазной социологии XIX — начала XX века / Под ред. И.С. Кона. Утверждено к печати Институтом социологических исследований АН СССР. – М.: Наука, 1979. – С. 164-79; Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество: Пер. с англ. / Общ. ред., сост. и предисл. А.Ю. Соломонова. — М.: Политиздат, 1992. -С.-250.; Спенсер Г. Основания социологии. Западноевропейская социология. –М., 1996. — С. -279–321.

O.Abduazimov, B.Karimov va G'.Rahmonovlar⁷ ijtimoiy davlatda inson qadrini yuksaltirish mexanizmlarining regulativ funksiyasini rivojlantirish muammolarini tadqiq etishga qaratilgan bir qator yondashuvlar sotsiologiya fani nuqtai-nazaridan tadqiq etilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari sotsiolog, pedagog va psixolog olimlaridan N.Kuzanskiy va B.Popovlar ijtimoiy davlat tamoyillarini davlat va jamiyat boshqaruviga joriy qilishning ijtimoiy, siyosiy va huquqiy jihatlarini tadqiq qilganlar⁸.

Mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlarda ijtimoiy davlat, umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muhabbat, oila ma'naviyati, shaxslar-aro munosabatlar, ijtimoiy adolat, hamkorlik, hamjihatlik, xotin-qizlarni ijtimoiy himoyalash masalalari turli fanlar nuqtai-nazaridan ilmiy tadqiq etilgan bo'lsa-da, ijtimoiy davlatda inson qadrini yuksaltirish mexanizmlarining regulativ funksiyasini rivojlantirish ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtirishdagi o'rnini sotsiologiya fani nuqtai-nazaridan ilmiy tadqiq qilish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Dissertatsiya tadqiqotining Dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasining PZ – 20170929253. Davlat boshqaruvi sohasida mutaxassislarni tayyorlash va davlat xizmatchilari malakasini oshirish bo'yicha maxsus ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish hamda ular faoliyati samaradorligini baholashning zamonaviy usullarini joriy etish (2022-2024 yy.) ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Ijtimoiy davlat sharoitida inson qadrini yuksaltirish mexanizmlarining regulativ funksiyasini takomillashtirishning sotsiologik yechimlarini ilmiy asoslantirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Ijtimoiy davlatda inson qadrini yuksaltirishning nazariy metodologik asoslari tashkil qiluvchi konsepsiyalar, yondashuvlar hamda ta'limotlarni nazariy tahlil qilish;

ijtimoiy davlat mexanizmlarini tartibga solish funksiyasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va tarkibiy qismlarini nazariy tahlil qilish;

⁷ Бекмуродов М.Б. Замонавий бошқарув социологияси. Монография. Т. Янги аср авлоди. 2020. – В.436; Умаров А.О. Ижтимоий-маданий тараққиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шакллантиришда мутолаанинг роли. / Соц. фан. докт. дис. Тошкент: ЎЗМУ, 2005; Xolbekov.A.J. Sharq va g'arb mutafakkirlarining sotsiologik ta'limoti. – Toshkent: Universitet, 1996. – В.25; Матибаев Т. Ижтимоий ҳамкорлик – миллатлараро бағрикенгликни таъминлаш воситаси. – Тошкент.Yangi kitob, 2016. – Б. 184; Содиқова Ш.М. Ўзгаришлар социологияси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Akademiya, 2019; Нарбаева Т. Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилишнинг инноватсион модели. Социодискурсив таҳлил. Монография.- Тошкент: Тасвир, 2020.Б.10; Фарфиев Б.А. Ўзбекистон ижтимоий тараққийтида ислом ратсионализми омили. Социология фанлари доктори (DSc). Тошкент. 2020; Сеитов А.П. Социологическое видение восточной цивилизации: генезис и дальнейшие перспективы. Монография. – Ташкент: Издательство Национальной библиотеки Узбекистана имени Алишера Навои, 2019. – С.183; Абдуазимов О.У. Ахборотлашган жамиятда жамоатчилик фикри мониторингини таъминлашда оммавий коммуникациялар социологиясининг ўрни. / Соц. фан. докт. дис. Тошкент: 2017; Каримов Б.Ш. Шахслараро меҳрлилик даражасини тизимли социологик ассессментлаш орқали оптимallashtiriш. Соц. фан. докт. дис. Ўз.Рес.През.хуз.ДБА. – Тошкент: 2021; Раҳмонов Ғ. Меҳр-муҳаббат юксак маънавий кадрият.-Т.2011 й.68-бет.

⁸ Кузанский Н. Сочинения в двух томах. Т.2. –М.: Мысль, 1980. — С–388.; Попов Б.Н. Взаимосвязь категорий счастья и смысла жизни. -М.: Наука, 1986. –С.-85.

inson qadrini yuksaltirish mexanizmlarining regulyativ funksiyalari tasnifiy belgilarini ochib berish;

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy hamjihatlikni jamoatchilik fikri shakllantirish hamda ijtimoiy institutlar orqali va yuksaltirish mexanizmlarini nazariy tahlil qilish;

Yangi O‘zbekistonda inson qadrini yuksaltirish borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar borasida jamoatchilik fikrini o‘rganishga doir amaliy sotsiologik tadqiqot o‘tkazish;

ijtimoiy davlatda inson qadrini yuksaltirish mexanizmlarining regulyativ funksiyasini rivojlantirishda inson-jamiyat-davlat omilining o‘rni va rolini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti. Ijtimoiy davlatda inson qadrini yuksaltirish mexanizmlarining regulyativ funksiyasi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini. Inson qadrini ijtimoiy institutlar va jamoatchilik fikrini shakllantirish orqali yuksaltirishning institutsional hamda o‘zini-o‘zi rivojlantirish omillarining o‘ziga xos xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy bilishning obyektivlik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, mantiqiylik, kompleks yondashuv, anketa so‘rovi, intervyu, kuzatish, qiyosiy tahlil, kontent tahlil, ekspert so‘rovi kabi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy davlat mexanizmlarining aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga doir regulyativ funksiyalari fragmental harakatdan evolyutsion rivojlanish harakatiga o‘tganligi hamda ijtimoiy siyosatida inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan intensiv va maqsadli islohotlar “inson-jamiyat-davlat” uchligida asoslantirilgan;

sotsial institutlar (oila, mahalla, ta’lim, sport, ish bilan bandlik) “birdamlilik”, “hamjihatlilik” “bog‘lanish” va “biriktirish” orqali ijtimoiy munosabatlarni belgilash va tartibga solish negizida inson qadrini yuksaltirish yo‘llari sotsial eksperiment usuli bilan asoslantirilgan hamda sotsial institutlar subyektlari faoliyatini sotsial tasniflash usullari ishlab chiqilgan;

ijtimoiy davlat sharoitida inson omilini inson kapitali toifasiga aylantirish orqali yuksak professionalizm, ma’naviy kamolot hamda vatanparvarlik omillari uyg‘unligida kasbiy fazilatlar, ijodiy qobiliyatlar, xulq-atvor motivlari, shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish orqali inson qadrini yuksaltirishning sotsiologik yechimlari ishlab chiqilgan;

huquqiy, demokratik va ijtimoiy davlat barpo etish bo‘lgan konstitutsiyaviy maqsadga erishishda davlat xizmatchilari siyosiy irodasini mustahkamlash va barcha jamoatchilik kuchlarining ishtiroki bilan ushbu maqsadni barcha fuqarolar uchun milliy g‘oya va harakat dasturiga aylantirish zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari.

Yangi O‘zbekistonda inson qadrini yuksaltirishda inson-jamiyat-davlat omili qadriyati mexanizmlarining regulyativ funksiyasi asoslangan “Yangi O‘zbekiston – ma’rifiy jamiyat”ni barpo etishning ilmiy-nazariy asoslari ochib berilgan;

inson qadrini yuksaltirishning hududiy omillari aniqlanib, shaxsni rivojlantirish imkoniyatlariga oid sotsiologik yechimlari ilmiy asoslangan;

inson qadri ijtimoiy-madaniy hodisa hamda xususiyat sifatida asoslanib, mamlakatimizda rivojlanish ta'sirini aniqlab borish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan;

inson qadrini yuksaltirishning institutsional asoslari sifatida ijtimoiy institutlar, jamoatchilik fikrini shakllantirish orqali takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda inson qadrini rivojlantirish jarayonlarining sotsial prognozlarini ilmiy asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, yondashuv uslublari, usullar va ilmiy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, ishonchli dalillardan olinganligi, aholi turli qatlamlari orasida o'tkazilgan empirik sotsiologik tadqiqot, mutaxassislardan o'tkazilgan ekspert so'rovi, kuzatuv metodi asosida olib borilgan tadqiqotlar, e'lon qilingan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda erishilgan natijalarning ilmiy ahamiyati jamiyat taraqqiyotining ma'naviy omillarini ijtimoiy davlat va jamiyat faoliyati uchun kompleks tarzda tahlil qilish va ushbu tizimni yanada takomillashtirish jihatlarini chuqur tadqiq qilishga bag'ishlangan maxsus ilmiy ishlarda manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy asoslangan takliflar va materiallaridan inson qadrini yuksaltirishda inson-jamiat-davlat omili qadriyatli mexanizmlarining regulyativ funksiyasini mustahkamlashda, rahbarning ijobiy imijini shakllantirishda, jamoatchilik fikrini o'rganish markazlari tomonidan o'tkaziladigan ijtimoiy so'rovlarda, oliy o'quv yurtlarida "Sotsiologiya", "Umumiy sotsiologiya", "Boshqaruv sotsiologiyasi", "Siyosiy sotsiologiya", fani bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlash hamda o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ijtimoiy davlat sharoitida inson qadrini yuksaltirish mexanizmlarining regulyativ funksiyasini tadqiq etish borasida olingan ilmiy natijalar quyidagi faoliyatlarga tatbiq qilingan:

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlat mexanizmlarining aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga doir regulyativ funksiyalari fragmental harakatdan evolyutsion rivojlanish harakatiga o'tganligi hamda ijtimoiy siyosatida inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan intensiv va maqsadli islohotlar "inson-jamiat-davlat" uchligida asoslantirilganlik ma'lumotidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasining 2024-yilga mo'ljallangan ish rejasining I. "Qonun ijodkorlik" bo'limi 8-"Yoshlarning ilm-fan bilan shug'ullanishi uchun yaratilayotgan shart sharoitlarni o'rganish" qismiga "1. "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonunning yoshlarni ilm-fan va ilmiy faoliyatga jalb etishga oid qismi Buxoro viloyatida ijro etilishi holatini o'rganish, 2. Chegara oldi hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratish, 3. O'rganish natijalarini Qo'mita

hamda xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashining qo'shma majlisida muhokama qilish" bandlarini ishlab chiqishda foydalanilgan.

Bundan tashqari dissertantning taklifiga ko'ra Qo'mitaning 2024-yilga mo'ljallangan ish rejasi IV. "Senatning aholi murojaatlari bilan ishlash borasidagi faoliyati" bo'limi 16-bandiga qo'shimcha "Murojaatlar bilan ishlash holati bo'yicha tahliliy axborot tayyorlash" bandi, 19-bandiga "Eng yaxshi ijtimoiy tashabbus" respublika ko'rik tanlovini" o'tkazish bandlari kiritildi. Shuningdek, 2024-yil 10-oktyabr kuni Oliy Majlis Senatida senatorlarning oliy ta'lim muassasalarining "Qizlarjon" klubi raislari hamda xotin-qizlar maslahat kengashi raislari bilan uchrashuvi ssenariysini tayyorlashda o'z samaradorligini ko'rsatgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 08.08.2025-yildagi №09/12-5-sonli ma'lumotnomasi).

sotsial institutlar (oilalar, mahalla, ta'lim, sport, ish bilan bandlik) "Birdamlilik", "Hamjihatlilik" "Bog'lanish" va "Biriktirish" orqali ijtimoiy munosabatlarni belgilash va tartibga solish negizida inson qadrini yuksaltirish yo'llari sotsial eksperiment usuli bilan asoslantirilgan hamda sotsial institutlar subyektlari faoliyatini sotsial tasniflash usullari ishlab chiqilganlik ma'lumotidan O'zbekiston Mahallalari uyushmasi huzuridagi Mahalla akademiyasida 2025-2026 o'quv yili uchun "Mahalla tizimi xodimlari va "Mahalla yettiligi" a'zolari hamda vazirlik va idoralarning mahallalarga biriktirilgan mas'ul xodimlarining mahalladagi faoliyati bo'yicha malakasini oshirish kursining o'quv dasturini hamda o'quv rejasining 13-o'quv yo'nalishidagi "Mahalla raislari tomonidan "Mahalla yettiligi" a'zolarining o'zaro samarali hamkorligini yo'lga qo'yish orqali ularning faoliyatini tizimli yo'lga qo'yish mexanizmlari" bandini ishlab chiqishda foydalanilgan.

Bundan tashqari dissertantning taklifiga ko'ra Mahalla akademiyasi tomonidan 2025-yil fevral oyida o'tkazilgan "Mahalla fuqarolari yig'ini tuzilmasidagi "Mahalla yettiligi" a'zolarining hamkorligi va hamjihatligini o'rganish bo'yicha so'rovnomaning 4, 5, 6, 7, 9, 10-savollarini shakllantirishda foydalanilgan. Shuningdek, Mahalla akademiyasi tomonidan 2025-yil yanvar-iyun oylarida viloyatlarda davlat boshqaruvi va huquqni muhofaza qiluvchi organlari, "Mahalla yettiligi"ning viloyat boshqarmalari rahbarlari, shahar va tumanlar hokimliklari bilan hamkorligini yanada mustahkamlash maqsadida "Mahalla yettiligi faoliyati samaradorligini oshirish" mavzusida o'tkazilgan davra suhbatlarini tashkil qilishda o'z samaradorligini ko'rsatgan. (O'zbekiston Mahallalari uyushmasi huzuridagi Mahalla akademiyasining 06.08.2025-yildagi №01-03/20-sonli ma'lumotnomasi).

ijtimoiy davlat sharoitida inson omilini inson kapitali toifasiga aylantirish orqali yuksak professionalizm, ma'naviy kamolot hamda vatanparvarlik omillari uyg'unligida kasbiy fazilatlar, ijodiy qobiliyatlar, xulq-atvor motivlari, shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish orqali inson qadrini yuksaltirishning sotsiologik yechimlari ishlab chiqilganlik ma'lumotidan "Ijtimoiy fikr" Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi tomonidan an'anaviy tarzda o'tkaziladigan "O'zbekiston: Davlat mustaqilligining – 33 yilligi jamoatchilik fikri ko'zgusida" mavzusida jamoatchilik fikrini o'rganish maqsadi o'tkazilgan so'rovnomaning "D" (mamlakatdagi ijtimoiy-

iqtisodiy islohotlari) blokidagi 3-savolni va javob variantlarini, “Ye” (Ijtimoiy himoya, ta’lim, sog’liqni saqlash, sport va bandlik) 5-6-7-savollar va javob variantlarini tayyorlashda foydalanilgan.

Markaz faoliyatiga joriy qilish borasida taklif qilingan ilmiy yangilik asosida O‘zbekistonda fuqarolarning o‘zini-o‘zini rivojlantirish, inklyuziv jamiyat, davlat va fuqarolar o‘rtasidagi samarali muloqotni tashkil qiluvchi tuzilmalar faoliyatini tahlil qilish, inson qadrini yuksaltirish, har bir insonga e’tibor, fuqarolar murojaatlari, ijtimoiy muammolarni fuqarolarning ijtimoiy fikrini o‘rganish orqali aniqlash, inson qadrini yuksalishi hamda o‘zgarish dinamikasini sotsiologik tahlil qilish kabi masalalarni qamrab oluvchi “Inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy davlat mexanizmlarining regulativ funksiyasini rivojlantirish” mavzusidagi so‘rovnoma anketa loyihasini tayyorlashda o‘z samaradorligini ko‘rsatgan. (“Ijtimoiy fikr” Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazining 21.04.2025-yildagi №01/16-81-sonli ma’lumotnomasi).

Huquqiy, demokratik va ijtimoiy davlat barpo etish bo‘lgan konstitutsiyaviy maqsadga erishishda davlat xizmatchilari siyosiy irodasini mustahkamlash va barcha jamoatchilik kuchlarining ishtiroki bilan ushbu maqsadni barcha fuqarolar uchun milliy g‘oya va harakat dasturiga aylantirish zarurati asoslantirilganlik ma’lumotidan O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi saylov oldi dasturining 1.3 “Davlat boshqaruvi va davlat xizmatini yanada isloh etish sohasida” bo‘limidagi 7, 8, 9 va 10 bandlaridagi davlat boshqaruvi, davlat organlari va jamoatchilik tashkilotlarining hamjihatligi va davlat fuqarolik xizmati hamda davlat xizmatchisiga doir bandalarni yangilashda foydalanilgan.

Shuningdek, 2025-yildagi chora-tadbirlar rejasi 4-bandiga “Qadriyatlarga tayangan taraqqiyot”, 11-bandiga “Tarixiy taraqqiyotdagi o‘rnimiz” loyihalarini amalga oshirish rejasi kiritildi. Ushbu qisqa muddatli loyihalar asosida Partiyaning O‘zbekiston davlatlik tarixida ijtimoiy davlatni barpo etishga doir Sharq mutafakkirlarining ilmiy, madaniy va ma’naviy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan ma’rifiy tadbirlarini tashkil qilishda o‘z samaradorligini ko‘rsatgan.

Dissertant tomonidan taklif qilingan ilmiy yangilik partiyaning Oliy Majlis qonunchilik palatasidagi fraksiyasi, viloyat, tuman va shahar Kengashlaridagi deputatlik guruhlariga partiya elektorati hamda saylovchilarning manfaatlarini deputatlik faoliyatida aks ettirishga, partiyaning Oliy Majlis qonunchilik palatasidagi fraksiyasi a’zolarini saylovchilar bilan uchrashuvlarida, hududiy va mahalliy kengash deputatlari tomonidan viloyat tuman va shahar kengash sessiyalariga masalalar kiritishga doir deputatlar uchun uslubiy qo‘llanmalarni tayyorlashda keng foydalanilgan. (O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining 06.08.2025-yildagi №02/02-78-sonli ma’lumotnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, OAK ro‘yxatidagi jurnallarda 5 ta, nufuzli xorijiy

jurnallarda 1 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 7 ta ma'ruza va tezislar nashr qilingan.

Dissertatsiya ning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, to'qqiz paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalarni o'z ichiga olgan. Dissertatsiyaning hajmi 154 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot metodlari keltirilgan, ishning fan-texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning ishonchliligi, amaliyotga joriy etilishi, aprotatsiyasi, e'lon qilinganligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ijtimoiy davlatda inson qadrini yuksaltirishning ilmiy-nazariy asoslari”**, deb nomlangan bobda dissertatsion tadqiqotning nazariy-metodologik asosi tahlil qilingan. Ijtimoiy davlat sharoitida davlat muayyan mamlakat miqyosida jamiyatni birlashtirish, turli ijtimoiy muammolarni hal qilish, aholi turmush tarzi farovonligini doimiy oshirib borish, ta'lim, tibbiyot, aholini ish bilan ta'minlashga doir munosabatlarni mustahkamlash hamda insonlarning ijtimoiy, huquqiy hamda siyosiy munosabatlarini muvofiqlashtirish vakolatlari bo'lgan tuzilma sifatida namoyon bo'ladi. Davlat va siyosat haqidagi ilk qarashlar antik davri faylusflaridan Aflotun “Davlat” asarida keltirilgan bo'lsa, Aristotel “Siyosat” asarida o'zining yondashuvlarini bayon qilgan. Aristotel inson qadri bilan bog'liq holatlar sababchilari doimo bahs manbai bo'lib kelganini takidlab quydagilarni yozadi: “Ba'zilar u yoki bu harakat davlat tomonidan sodir etilgan deb da'vo qilsa, boshqalari esa yo'q, davlat emas, balki oligarxiya yoki zolim boshqaruvchi tomonidan sodir etilgan deb hisoblaydi. Darhaqiqat, biz davlat arbobi va qonun chiqaruvchining barcha faoliyati faqat davlatga “polis (siyosat)”ga qaratilganligini va davlat tuzilishi “politeia” davlat aholisining taniqli tashkiloti ekanligini ko'ramiz”⁹ deb ta'kidlaydi.

Markaziy Osiyo mintaqasida ijtimoiy davlat haqidagi ilk ma'lumotlar zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avestoda ham keltirilgan. Unda Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, ijtimoiy-falsafiy fikrlarining muhim tomonlarini o'zida ifodalaydi. Shuningdek, Avestoda hokimiyat, haqiqat va adolatlilik uch axloqiy-huquqiy ustunga, ya'ni ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amalga tayanmog'i lozim, deb keltiriladi! Unga ko'ra davlatning vazifasi yovuzlikka qarshi yaxshilik, tinchlik va insonlarning baxtli-saodatli hayotini ta'minlashdan iborat deb hisoblangan¹⁰.

Keyinchalik, zardushtiylik qarashlari o'rnini Islom dini ta'limoti egalladi. Tarixiy nuqtayi nazardan siyosiy fikrlarning vujudga kelishi va rivojlanishida islom dini muhim manba hisoblanadi. Siyosat va ijtimoiy masalalar shariat (Qur'on, Hadis, Fiqh va Kalom asosida ishlab chiqilgan diniy, jinoiy va fuqarolik qonuniyat hamda

⁹ Аристотель. Политика // Аристотель. Сочинения: В 4 т. Перевод с древнегреч. С.Жебелева. М.: «Мысль», 1983. Т. 4. – С.4.

¹⁰ «Авеста». Издательство: Дружба народов, КРАМДС — Ахмед Яссауи, Алматы, 1992. – С.21-27.

qoidalari majmui)da o'z aksini topgan. Shuningdek, islom dinida inson qadri juda baland o'rinda turadi va Qur'oni Karim hamda Hadisi Shariflarida bu haqda ko'p bora ta'kidlangan.

Markaziy Osiyo hududida siyosiy fikrlarning rivojlanishi asosan IX-X asrlarda hukmronlik qilgan Somoniylar sulolasining ta'siri juda katta edi. O'sha davrlarda Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi ulug' mutafakkirlar yashab ijod qilgan. Bu davr olimlari dunyoviy ma'rifatga intilish, tabiatga qiziqish, tabiatshunoslik ilmlarini rivojlantirish, insonni qadrini ulug'lash, komil insonni tarbiyalash, universallik-qomusiylik, umuman, foydali barcha ilmlar bilan qiziqish borasida o'zlarini namoyon qildilar.

Farobiy ijtimoiy davlat va ideal jamiyat masalalariga katta e'tibor berib, jamiyat faqat moddiy ne'matlar bilan emas, balki ma'naviy va aqliy komillik bilan ham farovon bo'ladi. U "Fozil shahar"ni ya'ni ideal davlatni bunyod etish g'oyasini ilgari surgan. Bu davlatda: Har bir fuqaro o'z qobiliyatiga mos vazifani bajaradi, davlat rahbari aql, hikmat va adolatlilikka ega bo'ladi, butun jamiyatning maqsadi — saodat (kamol va baxt)ga erishish deb hisoblagan.

G'arb olimlaridan X.Grotsiy, I.Kant, T.Xobbs, J.Lokk, J.S.Mill, X.Marshall ijtimoiy davlatning paydo bo'lishi haqidagi nazariyalarga katta hissa qo'shdilar. Bugungi ijtimoiy davlatlarda ana shu olimlarning ta'limotlari muayyan darajada o'z aksini topgan. Grotsiyning ta'kidlashicha, "Har bir inson tabiiy huquqlarga ega, bu huquqlar insonning tabiatidan kelib chiqadi va hech qanday davlat yoki podshoh bu huquqlarni inkor eta olmaydi"¹¹ deb, bu tabiiy huquqlar orasida hayot, mulk, tenglik, va adolatga bo'lgan huquq alohida o'rin tutadi. Bu g'oyalar keyinchalik ijtimoiy davlatda inson qadrini himoya qilish, ijtimoiy tenglikka intilish, va fuqarolarni himoyalash funksiyalariga asos bo'lgan. Davlat huquqiy qonunlar himoyasida bo'lgan ko'pchilik odamlarning birlashmasidir deb ta'riflagan¹².

Kantning fikriga ko'ra davlatni huquq va erkinliklar asosida tashkil etilgan institut sifatida ko'radi. Uning "Rechtsstaat" (huquqiy davlat) g'oyasida davlatning asosiy vazifasi — shaxsning avtonomiyasi va erkinligini himoya qilishdir. Jumladan, davlat fuqarolarning tabiiy huquqlarini kafolatlashi kerak. T.Xobbs "ijtimoiy shartnoma" nazariyasida "Insonlar tabiiy holatda xavf-xatar ostida bo'lib, tinchlik va tartib uchun o'z huquqlarini davlatga topshiradilar davlat esa o'z navbatida fuqarolar xavfsizligi va farovonligini ta'minlashi shart degan" g'oyani ilgari surgan¹³.

Demak, O'rta asrlarda aynan ushbu g'oya G'arbiy Yevropadagi ijtimoiy davlat tamoyillarini davlat boshqaruvida qo'llash borasidagi ilk nazariya bo'lgan deyish mumkin. Jon Lokk tabiiy huquqlar ya'ni hayot, erkinlik va mulk daxlsizligi, hokimiyatni cheklash va fuqarolar roziligi asosida tuzilgan davlat nazariyasi bilan tanilgan. Uning qarashlari zamonaviy demokratiya va ijtimoiy davlat konsepsiyasiga kuchli ta'sir o'tkazgan. Uning fikricha, "Davlatning vazifasi - tabiiy huquqlarni muhofaza qilish"¹⁴.

¹¹ Grotius, H. (2005). The Rights of War and Peace (R. Tuck, Ed.). Liberty Fund. (Original work published 1625)

¹² Esping-Andersen, G. (1990). The Three Worlds of Welfare Capitalism. Princeton University Press.

¹³ Hobbes, T. (1996). Leviathan (R. Tuck, Ed.). Cambridge University Press. (Original work published 1651)

¹⁴ Locke, J. (1988). Two treatises of government (P. Laslett, Ed.). Cambridge University Press. (Original work published 1689)

Bizningcha, Yevropada bu g'oyalar ijtimoiy davlatdagi davlatning fuqarolarga nisbatan ijtimoiy majburiyatlarini shakllantirishda muhim bo'lgan. Chunki, G'arb olimlaridan ijtimoiy davlat bilan bog'liq g'oyalarni ingliz olimi Jon Styuart Mill davom ettirib ijtimoiy tartibni saqlash, ta'limni ta'minlash va kambag'allikni cheklash kabi vazifalarni davlat zimmasiga yuklagan. Ijtimoiy davlat to'g'risida fikr yuritgan olimlardan T.X.Marshallning "Citizenship and Social Class" (Fuqarolik va ijtimoiy sinf) asarida Fuqarolik – fuqarolik, siyosiy va ijtimoiy huquqlar majmuasidir va davlat ta'lim, tibbiyot, pensiyaga doir ijtimoiy huquqlarni bilan ta'minlashi shart ekanligini keltirib o'tgan.

G'arbda ijtimoiy davlat nazariyalari orasida umumiy farovonlik nazariyasi ham muhim o'rin tutadi. "Farovonlik davlati"¹⁵ (Welfare state) nazariyasi Germaniyada ikkinchi jahon urushidan keyin vujudga kelgan bo'lib, uning namoyondalari davlatning ijtimoiy hayotga aralashmasligiga oid bo'lgan ta'limotlarga qarshi chiqqanlar. Ushbu nazariyaning asosiy g'oyalari XX asrning 30-yillarida D.Keyns tomonidan ta'riflab berilgan. Keynsning fikriga ko'ra, "Bozorlar har doim ham muvozanat holatida bo'lmaydi va iqtisodiyot tabiiy ravishda to'liq bandlik holatiga yetib bora olmaydi. Shu sababli, davlat keng ko'lamli iqtisodiy faoliyatlar orqali jumladan, davlat sarmoyalari, ish o'rinlari yaratish va fiskal siyosat orqali iqtisodiyotni rag'batlantirishi kerak"¹⁶, deb ta'kidlagan. Bunday yondashuv "Farovonlik davlati" konsepsiyasini shakllantirdi, ya'ni davlat fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash, daromadlarni qayta taqsimlash va iqtisodiy beqarorlikni yumshatish orqali farovonlikni kafolatlashi kerak degan g'oyaga asoslangan. Keyinchalik D.Myurdal, V.Pigu, K.Boulding, V.Mund va boshqalarning asarlarida u yanada rivojlantirilgan.

Ijtimoiy fanlarda ijtimoiy davlat konsepsiyasida, konvergensiya turli davlatlarning inson qadri, tenglik, ijtimoiy adolat va davlat kafolatlari sohalarida umumiy tamoyillarga yaqinlashishi va o'xshash ijtimoiy siyosatlarni qabul qilishi jarayonini anglatadi. Konvergensiya nazariyasini ijtimoiy institutlar, madaniyat va inson qadriyatlar darajasida chuqur tahlil qilgan olimlardan biri M.Bekmurodovning fikricha, "Sanoatlashuv va modernizatsiya natijasida davlatlar o'rtasida muayyan umumiyliklar paydo bo'ladi, ya'ni ta'lim tizimlari o'xshashligi va bir maqsad doirasida birlashadi, yangi oilalar shakllanishi sababli oilaviy strukturalar yaqinlashadi, ijtimoiy qatlamlar va kasb obro'sidagi umumiy tendensiyalar paydo bo'ladi, axborot va kommunikatsiya vositalarining global standartlashuvi kuzatiladi. Konvergensiya natijasida turli millatlar aholisi o'rtasida umumiy qadriyatlar, munosabatlar va kundalik xulq-atvorlar shakllanadi. Bu jarayon ko'plab davlatlar o'rtasida global modernizatsiya va milliy rivojlanishga katta turtki bo'ladi"¹⁷.

¹⁵ "Фаровонлик давлати" назарияси 50-йилларда Ғарбий Европа ва АҚШ даги иқтисодий юксалиш даврида вужудга келди. Бу назарияни яратувчилардан бири швед иқтисодчиси ва давлат арбоби К.Г.Мюрдаль (1898-1987) бўлиб, у "Фаровонлик давлати доирасида" деган машхур китоб муаллифидир.

¹⁶ Keynes J. M. The General Theory of Employment, Interest and Money. — N.Y.: BN Publishing, 2008. — P. 9.

¹⁷ Бекмуродов М.Б. Ижтимоий таракқиёт ва жамоатчилик фикри. Монография. Тошкент: «Халқ таълими». 1997 йил. — Б.47.

Hozirgi kunda olimlar o'rtasida "ijtimoiy davlat" tushunchasining asoschisi va paydo bo'lish vaqti bo'yicha yagona fikr mavjud emas. "Aksariyat tadqiqotchilar xorijlik G'arb olimlari ham, rus olimlari ham – ijtimoiy davlatning shakllanishi haqidagi g'oyalarning paydo bo'lishini T.Gobbs va J.Lokk nazariyalari bilan bog'laydilar, bu nazariyalar 1648-yilgi ingliz inqilobi va 1688-yilgi shonli inqilobni tushunish mahsuli bo'ldi. Lekin o'zining eng rivojlangan ko'rinishida bu g'oyalar va siyosiy talablar 30-40-yillarda namoyon bo'la boshladi.

Birinchi bor amaliy shaklida Germaniya kansleri Otto fon Bismark tomonidan joriy etilgan. U ishchilarning ijtimoiy muhofazasini ta'minlash maqsadida pensiya tizimi, mehnatga layoqatsizlik yordami va tibbiy sug'urta kabi choralarni amalga oshirgan. Bu holat davlatning faqat huquqiy va siyosiy emas, balki ijtimoiy funksiyalarni ham bajarishi kerakligini namoyon etdi"¹⁸.

Islom ta'limoti insonni "Ashraful maxluqot" ya'ni maxluqotlarning eng sharaflisi sifatida ta'riflaydi. Qur'on va Hadislarda insonning erkin irodasi, mas'uliyati va qadri alohida urg'u bilan tilga olinadi. Bu qarash inson hayotining ma'naviy asoslarini belgilaydi va har bir insonning teng huquqli ekanligini tasdiqlaydi. Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Farobiy va Ibn Sino, insonni aqliy kamolot sari intiladigan mavjudot sifatida talqin qilgan. Alisher Navoiy esa o'z asarlarida inson qalbi, vujudiy mohiyati va ruhiy tarbiyani inson qadrining asosiy mezoni sifatida ko'rsatadi. Amir Temur esa insonning xizmat, mehnat va vijdonga asoslangan fazilatlarini qadrlagan va davlat boshqaruvida insoniylikni muhim tamoyil sifatida belgilagan.

Inson qadri, huquqlari va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish hamda qonun ustuvorligini ta'minlash, shuningdek jamiyat va har bir fuqaro hayotiga ularni tatbiq etish Yangi O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatida markaziy o'rinni egallab kelmoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 7 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ bayonnomasiga qo'shilgan bo'lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomaviy qo'mitalariga muntazam ravishda milliy ma'ruzalarni taqdim etib kelmoqda. Jumladan, buning yorqin ifodasi sifatida umumxalq referendumi asosida 2023-yil 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini misol qilib keltirish mumkin.

Bizningcha. hozirgi davrda har qaysi odamning qadri – avvalo, integrativ tarzda, ya'ni insonning tabiat va tashqi olamda ro'y berayotgan jarayonlarga, bu jarayonlardagi, aloqadorligi turli irq, millat, ijtimoiy qatlamlarga mansub bo'lgan, rang-barang maqsad va qadriyatlarga o'ziga, oila, turmush, jamoa va jamiyatdagi mavqega nisbatan munosabatida yaqqol ko'rinadi. Shu bilan birga, mehnat, ishlab chiqarish va iqtisodiy jarayonlarda ishtiroki, jamiyatdagi ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va moddiy boyliklarni yaratish jarayoniga qo'shayotgan hissasi ham inson qadrini belgilaydi.

¹⁸ Stein, L. von. (1850). Geschichte der sozialen Bewegung in Frankreich von 1789 bis auf unsere Tage (Vol. 1). Leipzig: Wilhelm Engelmann. – R.32.

Jamiyatning barcha muhtoj a'zolariga istisnosiz ijtimoiy yordamning mavjudligiga e'tibor qaratish, davlat tomonidan fuqarolarning farovonligi darajasi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olinishi, fuqarolik jamiyati institutlarining mavjudligi ijtimoiy davlat mexanizmlarini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari sifatida ko'rish mumkin. Ijtimoiy davlat mexanizmlarining tartibga solishda jamoalashuv jarayoning faollashuvi, davlat tuzilmalari hisobdorligini tizimlashuvi, qarorlarni tashabbuskori bo'lish, qarorlarni muhokamasida ishtirok faolligi, qarorlar qabul qilishda real kuch sifatida namoyon bo'lish, ozchilik fikrini inobatga olinishi funksiyalarini bajaradi.

Bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy davlat – bu fuqarolarning farovonligini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan davlat shaklidir. Ushbu davlat shaklining mexanizmi fuqarolarning ijtimoiy muhofazasini, teng imkoniyatlarini va hayot sifatini yaxshilashni ta'minlaydi. Ijtimoiy davlatning bosh subyekti insondir va uning qadridir. Inson qadrini yuksaltirish davlat sektori, nodavlat sektori, jamoat birlashmalari va ixtiyoriy shaxslar tomonidan amalga oshiriluvchi jarayon sanaladi”¹⁹.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Inson qadrini yuksaltirish mexanizmlarining regulativ funksiyalari tasnifi”** deb nomlanib, Birinchi paragrafda inson qadrini yuksaltirishda regulativ funksiyalarni rivojlantirish bo'yicha xorijiy ilg'or tajribalar tahlili keltirilgan bo'lib, Germaniya tajribasi jamiyatini keskinlikka qaratilgan siyosatdan milliylikning insonparvar rejimiga almashtirdi. Inson huquqlarining kafolati asosiy qonun sifatida konstitutsiyaviy tuzum mohiyatini qadr-qimmat tarzida ifodalaydi. Unda “Inson qadr-qimmati oliy qadriyatdir”²⁰, deb ta'kidlangan. Asosiy qonun inson qadr-qimmatining daxlsizligiga ishonch hosil qilish va ushbu kafolatni asoslash bilan yakun topadi. Bu kafolatga ko'ra, “Fuqarolarning shaxslar va subyektlarga nisbatan munosabat huquqi saylovlar va boshqa demokratik tadbirlar orqali erkinlik, tenglik, demokratiya tamoyillari mustahkamlangan. Inson qadr-qimmati bilan uyg'unlashgan va inson qadr-qimmatining noyob tarixiy va tarkibiy pozitsiyasini belgilangan”²¹. Agar inson qadr-qimmati, daxlsizligidan voz kechilsa, asosiy qonun ham o'z kuchi va mantig'ini yo'qotadi. Germaniya konstitutsiyaviy huquqida qadr-qimmat alohida band tarzida shakllantirilgan. Unda inson qadr-qimmati ham qiymat, ham asosiy huquq sifatida asosiy rol o'ynaydi hamda inson qadr-qimmati tushunchasining huquqiy qirralari batafsil yoritilgan.

Inson qadri Fransiya koloniyalarida qullikni bekor qilgan 27-apreldagi 1848 farmoni bilan boshlandi. Aniq da'vat: “qullik inson qadr-qimmatiga tajovuz ekanligini hisobga olsak...”²² bu ikkalasi ham farmon va umuman inson qadr-qimmati tushunchasi keyinchalik kurashda ko'rib chiqiladi. Qo'shma Shtatlar janubida ham qullikka qarshi harakatlar boshqa joylardagi singari avj oldi. Frankfurt

¹⁹ Mualliflik ta'rifi.

²⁰ Reinisch A. Essential Questions in EU Law. — Cambridge, 2011. – P.105.

²¹ Verfassung der Deutschen Demokratischen Republik 1949.

²² Jellinek (1929), 419, own translation.

Konstitutsiyasi atrofidagi 1849-yilgi munozaralar paytida “odamlarni munosib mavjudot sifatida himoya qilish”²³ fikri muhokama va qabul qilingan.

Inson qadrini yuksaltirish hamma davlatda xar xil bo‘lgani uchun biz dissirtatson tadqiqotda rivojlangan davlatlar tajribasiga asosan inson qadrini yuksaltirishda regulativ funksiyalar xalqaro tajriba asosida qiyosiy tahlil qildik va bu jadvaldan ko‘rinib turibdiki inson qadrini yuksaltirish har bir davlatda uning geografik joylashuvi, milliy mentaliteti, aholisi urf odatlari, an‘analari bilan bir-biridan tubdan farq qiladi (2.1.2, 2.1.3-jadval)

2.1.2-jadval

2.1.2-jadval Inson qadrini yuksaltirishga doir O‘zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasining qiyosiy jadvali

Davlatlar nomi	Asosiy qonunlar va regulativ hujjatlar	Inson qadrini yuksaltirish mexanizmlari	Davlat organlari roli	Muhim xususiyatlar
O‘zbekiston	Konstitutsiya (2023), Inson huquqlari strategiyasi, “O‘zbekiston-2030” strategiyasi	Ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya	Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi	Yangilangan konstitutsiyada inson qadri ustuvor deb belgilandi, inklyuzivlik, proaktivlik
Germaniya	Asosiy qonun (Grundgesetz)	Inson huquqlari kafolati, ijtimoiy tenglik	Bundestag, Konstitutsiyaviy sud	Inson qadri oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan
Yaponiya	Konstitutsiya (1947)	Ijtimoiy adolat, mehnat huquqlari	Parlament, Vazirlar kabineti	Tinchlik va inson qadriga urg‘u berilgan
AQSH	Konstitutsiya, Huquqlar Billi	Shaxsiy erkinliklar, so‘z erkinligi	Kongress, Oliy sud	Individualizm va shaxs huquqlari asosida
Shvetsiya	Inson huquqlari to‘g‘risidagi qonunlar	Fuqarolik tengligi, sog‘liqni saqlash, ta’lim	Parlament, Ombudsman	Ijtimoiy tenglikni ta’minlashga katta e’tibor

2.1.3-jadval

2.1.3-jadval. O‘zbekiston, Germaniya, AQSH, Yaponiya va Shvetsiyada inson qadri: Tamoyillar va farqlar

Davlat	Tamoyillar	O‘ziga xoslik	Inson qadri asosi	Davlat roli
O‘zbekiston	Konstitutsiyada inson qadri oliy qadriyat sifatida belgilangan.	Yangi huquqiy islohotlar, hamma va har bir insonni farovon qilish, teng imkoniyatlar yaratish, inklyuziv	Konstitutsiyaviy tamoyillar, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish, faravonlik	Kuchli ijtimoiy himoya
Germaniya	Grundgesetz 1-modda: Inson qadri daxlsiz.	Konstitutsiyaviy sud inson huquqlarini himoya qiladi.	Huquqiy va falsafiy asoslar	Balanslashgan nazorat
AQSH	Individual erkinlik va shaxs huquqlari ustuvor.	Individualizm va sud himoyasiga asoslangan.	Erkinlik va huquqlar	Maxsus huquqiy kafolatlar
Yaponiya	Konstitutsiyada tinchlik va inson huquqlari asosiy maqsad.	Jamoaviylik va an‘analarga uyg‘unligi.	Ijtimoiy tartib, tinchlik	Davlat va jamoa uyg‘unligi
Shvetsiya	Ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari.	Kuchli ijtimoiy davlat va ombudsman instituti.	Ijtimoiy himoya tizimi	Kuchli ijtimoiy kafolatlar

Ushbu beshta davlatda inson qadrini ta’minlashga oid asosiy tamoyillar, huquqiy asoslar va amaliy mexanizmlar sohasidagi farqlar solishtirma tahlili shuni ko‘rsatadiki, Dunyoning rivojlangan davlatlari singari Yangi O‘zbekistonda ham ijtimoiy davlat tamoyillari mamlakatning barcha islohotlarida, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarida, davlat hokimiyati taqsimlanishi hamda davlat boshqaruvida to‘liq aks topgan.

²³ Конституция Германской империи (24 марта 1849 г.). URL: https://togudv.ru/ru/faculties_old/full_time/isptic/iogip/study/studentsbooks/histsources2/igpzio59/

Inson qadrini yuksaltirish mexanizmlarining regulyativ funksiyalari takomillashtirish borasida Germaniyaning inson qadrini yuksaltirishda davlat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan samarali regulyativ funksiyalarni yo'lga qo'yish, Yaponiyaning inson huquqlarini himoya qilish, tenglik, ijtimoiy adolat va shaffof boshqaruvni ta'minlashga doir normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda maksimal darajada milliylik, an'analar, qadriyatlar inobatga olish hamda mexanizmlarini mental xususiyatlardan kelib chiqqan holda amalga oshirish va Kanadaning fuqarolik jamiyati institutlari va davlat organlarining inson qadrini poymol etganlik uchun javobgarlikning yuqori darajada egaligi kabi tajribalarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish mumkin.

Ikkinchi paragrafda Yangi O'zbekistonda ijtimoiy hamjihatlikni jamoatchilik fikri orqali shakllantirish va yuksaltirish mexanizmlari bayon qilinib, unda ijtimoiy davlat mohiyat e'tiboriga ko'ra, odamlarning muayyan maqsadlar yo'lida birlashtirish ularni o'zaro hamfikir, hamjihat bo'lishini nazarda tutadi. Hamjihatlik esa jamiyatdagi ijtimoiy fikr kuchidan quvvat oladi.

Jamoatchilik fikri orqali ijtimoiy hamjihatlikni xaritalashga yoki rejalashtirishga bo'lgan intilishlar quyidagi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan:

- ba'zi jamiyatlardagi jamoatchilik fikrida qadriyatlar, o'ziga xosliklar, etnomadaniy mansubliklar kabi bog'laydigan rishtalarning o'zgachaligi;
- jamoatchilik fikridagi farqlar asosan etnomadaniy xilma-xillik, ishlab chiqarish, turmush tarzi va geografik farqlar sababli kelib chiqishi;
- ijtimoiy birliklarda uyushmalar va infratuzilmalarning o'ziga xos tabaqalanishi.

Shuningdek, jamoatchilik fikri ta'sirida shakllanuvchi ijtimoiy hamjihatlikning hududiy konsepsiyasining tavsifi va empirik natijalari mazkur jarayonning tizim yasovchi elementlari yildan yilga o'zgarib bormoqda. Xususan:

- shaxslar, guruhlar va jamiyatlarning o'zaro integratsiyalashuviga qaratilgan maqsadli munosabatga kirishishlarida asosan avvaldan shakllantirilgan stereotiplarga tayanilishi;
- ijtimoiy hamjihatlikning inson kapitaliga asoslangan holda rivojlantiruvchi faoliyatning yo'qligi;
- muayyan jamoalar, submadaniy ijtimoiy sotsiumlarida o'zaro korporativ faoliyatni tashkil etish maqsadlarining tizimli emasligi.

Yana shuni ham ta'kidlash lozimki, tadqiqot obyekti bo'lgan fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga hamjihatlik va ijtimoiy kapitalning o'rni ahamiyatlidir. "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun nihoyatda muhim bo'lgan bu tushuncha ahamiyati nuqtayi nazaridan batafsilroq yondashishni talab etadi. Ijtimoiy kapital (social capital) inson kapitalining ajralmas qismi hisoblanadi.

Kishilar orasida aloqalar va ularga bog'liq bo'lgan ishonch va axloq me'yorlarini ifoda etgan ijtimoiy kapital ijtimoiy ta'sirlashish mexanizmini tashkil etadi"²⁴.

²⁴ Jalilov A., Muhammadiyev U., Jo'raev Q. Fuqarolik jamiyati asoslari: o'quv qo'llanma. – T., 2015. – B. 109.

Demak, ijtimoiy hamjihatlik hodisasi jamiyatdagi ijtimoiy kapital zaxiralarini mustahkamlash imkoniyatini beruvchi bir maqsadli o'lchov birligi hamda ayni vaqtda odamlarning jamoaviy faoliyatdagi ishtiroki va integratsiyalashuvining ko'p maqsadli o'lchov birligi sifatida namoyon bo'ladi. Jamoatchilik fikrida ijtimoiy kapitalning namoyon bo'lishidagi o'ziga xos o'lchov parametrlari – bu odamlar-aro munosabatlar, ularning muayyan tashkilotlarga a'zoligi, ijtimoiy munosabatlarning pozitiv yo'nalganligi, umumiy maqsadlar yo'lida o'zaro qo'llov muhitining shakllantirilganligi va jamoaviy ishlarda fuqarolarning faol ishtiroki (hashar, “yashil makon”, obodonchilik, sumalak va boshqalar).

Uchinchi paragrafda inson qadrini ijtimoiy institutlar orqali yuksaltirish masalasi tahlil qilingan. Ijtimoiy institutlar bu ijtimoiy hayotni tashkil etuvchi xatti-harakatlar va munosabatlarni o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy tizimlardir. Ijtimoiy institutlar jamiyatning tuzilishi, rahbarligi va tartibini ta'minlash kabi asosiy ehtiyojlarini qondirish bilan ahamiyatli. Ijtimoiy institut so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, “Ijtimoiy” so'zi arab tilidan kirgan bo'lib, arabcha ijtimai'iy so'zidan olingan. “Jamiyatga oid”, “Odamlar o'rtasidagi munosabatlarga tegishli”, “jamoatchilik bilan bog'liq”²⁵ degan ma'nolarni anglatadi. Institut so'zi esa “lot. instetutum” so'zidan olingan bo'lib, ikki xil ma'noni bildiradi. Birinchidan, nizom, qoidalar yoki ularning to'plamini, ikkinchidan, mahkama, muassasalarni bildiradi.

Bizningcha, ijtimoiy institutlar orqali bugungi kunda inson qadrini yuksaltirish muhim omil hisoblanadi. Jumladan, ijtimoiy institutlarning eng keng tarqalgan shakllariga oila, din, ta'lim va hukumatni kiritish mumkin. Ijtimoiy institutlar milliy, jinsiy, irqiy va boshqa me'yorlar hamda qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy institutlar inklyuzivlik va ijtimoiy adolatni targ'ib qilish uchun ushbu me'yorlar va qadriyatlarni qanday shakllantirishini tushunish juda muhimdir. Ijtimoiy institutlar ijtimoiy xulq-atvorni tashkil qilish va tartibga solish uchun asos yaratadi. Ijtimoiy institutlar bu odamlarining hayotida muhim bo'lgan masalalarni hal qilish uchun tashkil etilgan barqaror tizimdir. Bugungi kunda ijtimoiy institutlarning har xil turlari mavjud, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega va jamiyatga ta'siri ham har xil. Demak, ta'lim bu shaxslarni yoshligidan jamiyatdagi mavjud e'tiqodlar va qadriyatlarni ularda shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan ijtimoiy institut hisoblanadi.

Sotsiologiya fani nuqtai-nazaridan qaraydigan bo'lsak, ta'lim muassasalari, bo'lmish maktablar, texnikumlar, kollejlar va universitetlar ularda mehnatsevarlik, intizom va hokimiyatga hurmat kabi qadriyatlarni targ'ib qiladi va insonni jamiyatga shaxs qilib tayyorlaydi. Ta'lim inson qadrini yuksaltirish va inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omili hisoblanadi. Sotsial institutlar orasida oila institutida oila o'z a'zolariga hissiy va amaliy yordam ko'rsatadigan ijtimoiylashuvning birinchi bosqichi o'tadigan muhim sotsial makondir.

Oilada avlodlarni tarbiyalash, reproduksiya, munosabatlar, mehrlilik, inson qadr-qimmat, axloqiy qoidalar, madaniyat, urf-odatlar, qadriyatlar hamda e'tiqodlar tarbiya orqali shakllantiriladi. Oilada bolalarga madaniy va ijtimoiy me'yorlar,

²⁵ Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 2-jild. – Toshkent: Universitet, 2003. – B. 158.

qadriyatlar va umidlarni, shu jumladan jins va irq bilan bog'liq qadriyatlar o'rgatadi. Inson qadrini yuksaltirishda muhim bo'lgan institutlardan biri din va diniy e'tiqodlardir. Bu institut shaxslar va jamoalar uchun axloqiy asos yaratadigan sotsial institutdir.

Din odatda yuqori kuchga ega bo'lgan ishonchni kuchaytiradigan institutdir. Diniy muassasalar insonlarda rahm-shafqat, kechirim va xayriya kabi qadriyatlarni mustahkamlaydi. Inson qadrini ijtimoiy institutlar orqali yuksaltirishda davlat va nodavlat tizimlarining imkoniyatlarini yanada oshirish, "Fuqarolik jamiyati bilan o'zaro hamkorlikning yangicha andozalari – taraqqiyotning yangi strategiyalari – xulq-atvorning yangi modeli" hamda "Maqsadlar yakdilligi va manfaatlar umumiyligi" prinsiplari asosida vakillik va ijro hokimiyatining barcha darajalarida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy sohalarida eng muhim qarorlar qabul qilinishi jarayonlariga nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini keng jalb etish maqsadga muvofiq deb, hisoblaymiz.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy davlat mexanizmlarining regulativ funksiyasini takomillashtirishning empirik tahlili"** deb nomlangan bo'lib, bobning birinchi paragrafida Yangi O'zbekistonda inson qadrini yuksaltirish mexanizmlarining regulativ funksiyalarini rivojlantirishga oid faoliyatning sotsiologik tahlili yoritilib, unda dissertantning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi" bilan hamkorlikda 2025-yilning yanvar-fevral oylarida "Davlat xizmatchilarini qadrini yuksaltirish mexanizmlarining regulativ funksiyalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi subyektiv va obyektiv omillar" mavzusidagi sotsiologik tadqiqot o'tkazildi.

Empirik baza sifatida 14 ta hududiy bo'linmalar ya'ni viloyat miqyosida 280 nafar viloyatlar hokimiyatidagi boshqarma va bo'lim xodimlari va tuman-shahar miqyosidagi hokimiyatlardagi hokim o'rinbosarlari, bo'lim boshliqlaridan iborat 400 nafar va xodimlardan iborat 500 nafar respondentlar tanlab olindi. (N=900, mintaqalar davlat xizmatchilarining yashash joyi, jinsi, yoshi, ma'lumoti, lavozimi, mehnat staji va boshqa ijtimoiy-demografik tavsiflari hisobga olingan holda saralab olish usuli bilan shakllantirildi). Onlayn so'rovda jami 900 nafar respondentlar so'raldi, shundan 834 nafar respondentning onlayn anketalari yaroqli deb topilib, (66 ta anketalar yaroqsiz deb topilgan) tadqiqotning birlamchi ma'lumoti sifatida qayta ishlandi va tahlil qilindi. Jumladan, viloyatlar hokimiyati xodimlari – 280 nafar (33,5%) va tuman-shahar hokimiyati xodimlari 554 nafar (66,5 %), erkaklar – 565 nafar (67,7%), xotin-qizlar – 269 kishi (32,3%).


So'rov o'tkazilgan yoshlarning yosh tuzilmasi: 18-30 yosh 154 nafar (28 nafari xotin-qizlar) – 18,8%, 31-35 yosh 106 nafar (34 nafari xotin-qizlar) – 12,7%, 36-40 yosh 172 nafar (23 nafari xotin-qizlar) – 20,6%, 41-45 127 nafar (55 nafari xotin-qizlar) – 15,2%, 46-50 yosh 72 nafar (21 nafari xotin-qizlar) – 8,6%, 51-55 yosh 82 nafar (31 nafari xotin-qizlar) – 9,8%, 56-60 yosh 121 nafar (36 nafari xotin-qizlar) – 14,5%ni tashkil etgan. Respublika bo'yicha viloyat va tuman shahar hokimliklarida ishlovchi rahbarlar va xodimlarni 9,2% i sotsiologik tadqiqotga qamrab olingan. Shundan 42%i hokimiyatlardagi boshqarma va bo'lim

boshliqlari va 58%i hokimiyatlardagi boshqarma va bo'limlar xodimlari tashkil qilgan.

Inson qadri albatta, shaxsning ish faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lganligi sababli biz hokimlik xodimlarini kelajakdagi rejalari va ushbu maqsadga erishishlari uchun hokimiyatga qanday maqsad bilan ishga kirganliklarini aniqlashtirish maqsadida ularga dastlab "Hokimiyatga ishga kirishdan asosiy maqsadingiz nimalardan iborat edi?" deb, savol berilganda respondentlarning 63,1%i (25,7%i xotin-qizlar) hokimiyatda ishlab turgan vaqtimda men boshqaruv organlarida bo'lganligim sababli o'z qadrimni va jamiyatdagi o'rnimni yaxshilash uchun eng qulay imkoniyat va boshqaruv organlarida ishlashga qiziqaman degan fikrni bildirganlar, 23,2 % respondentlar esa qayerda bo'lsa ham ishlasam bo'ldi muhimi ish bilan band bo'lib, yaxshi maosh olsam bo'ldi shunisi men uchun muhim deb javob berganlar va 9,9% respondent ish bilan band bo'lishim yoki yaxshi maosh olishdan ko'ra men shu hududni (viloyat, tuman-shahar) rivojlanishiga o'z hissamni qo'shish uchun ishga kirdim, 3,8% respondent tanish-bilish va qarindoshlarimni tavsiyasiga ko'ra yoki boshqa ish topa olmaganim uchun hokimiyatga ishga kirdim deb javob berganlar.

Demak, hokimiyatlarga o'z qadriini yuksaltirish va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish istagida ishga kirganlarning 63,1%i ya'ni 526 nafar xodimlar hokimiyatlarda o'z qadriini yuksaltirish uchun qulay muhit mavjud va ular hokimiyatda ishlab kelajakda jamiyatda o'zining mustahkam o'rniga va qadrli inson bo'lishlariga ishonadilar. Hokimiyatlarda ishlayotganlarning 36,9% ya'ni 308 nafari boshqa aniq maqsadsiz yoki boshqa ish topguncha yoki ish topolmaganliklari uchun aniq maqsadsiz ishlayotganliklaridan dalolat beradi. (Qarang: 3.1.3-rasm).

3.1.3-rasm



3.1.3-rasm. Respondentlarning "Hokimiyatga ishga kirishdan asosiy maqsadingiz nimalardan iborat edi?" degan savolga javoblari (% va son hisobida)


Shaxs qayerda ishlamasin o'z-o'zini rivojlantirish, imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish, o'z orzulari va qiziqishlariga erishishga intilib ishlaydi va yashaydi. Shundan kelib chiqib, respondentlarga "Sizningcha, hokimiyatlarda ishlash vaqtida shaxs o'z-o'zini rivojlantirish, o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish, o'z orzulari va qiziqishlariga erish uchun imkoniyat bormi?" deb savol berilganda, Respondentlarning 80,1% i ha, hokimiyatda ishlash vaqtida o'z-o'zini rivojlantirish, imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish, o'z orzulari va qiziqishlariga erishishga imkoniyat va sharoit borligini bildirganlar.

Respondentlarning 7% yo'q, hokimiyatda ish hajmi va turli bosimlarni borligi tufayli shaxs o'z-o'zini rivojlantirish, o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish,

o‘z orzulari va qiziqishlariga erishga imkon qolmaydi deb, salbiy javob berganlar. Respondentlarning 12,9%i betarafiligicha qolib javob bermaganlar.

Demak hokimiyat xodimlarining hokimiyatlarda ishlash vaqtida shaxs o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, o‘z orzulari va qiziqishlariga erish uchun imkoniyat yo‘q deb hisoblaydilar. Bu hokimiyat xodimlarining 13,0 %ida norozilik kayfiyati borligi va o‘z kelajagiga ishonchi yo‘qligini bildiradi. (Qarang: 3.1.5-rasm)

3.1.5-rasm



3.1.5-rasm. Respondentlarning “Sizningcha, hokimiyatlarda ishlash vaqtida shaxs o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, o‘z orzulari va qiziqishlariga erish uchun imkoniyat bormi?” degan savolga javoblari (% va son hisobida)

Shaxsiy o‘z-o‘zini yaxshilash va o‘z maqsadlariga erishish imkonini beradigan yangi ko‘nikmalar, bilimlar va munosabatlarni rivojlantirish jarayoni tushuniladi. Shundan kelib chiqib respondentlarga “Sizga hokimiyat yangi ko‘nikma va bilimlar olishingiz hamda yangi munosabatlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratadimi?” deb savol berilganda, respondentlarning 76,5%i (638 nafar) ha, hokimiyat rejali ravishda meni malaka oshirish va stajirovkalarga yuboradi shu bilan men o‘z bilim, ko‘nikmalarim va yangi munosabatlarimni rivojlantiraman deb, 8,6% respondentlar (72 nafar) yo‘q, men faqat ishlar bilan to‘liq band bo‘lib qolganman, menda bunaqa imkoniyat yo‘q deb, salbiy javob berganlar. Respondentlarning 14,9%i (124 nafari) o‘z hayotini yaxshilash va o‘z maqsadlariga erishish imkonini beradigan yangi ko‘nikmalar, bilimlar va munosabatlarni rivojlantirish uchun boshqa ishga o‘tishni rejalashtirayotganliklarini bildirganlar.

Respondentlarning 23,5%i (196 nafari) hokimiyatlarda ishlashdan va ularga bo‘lgan munosabatlardan qoniqmasalarda, barchasiga chidab ishlashini bildirganlar. Hokimiyat xodimlarining 23,5 foizi o‘z hayotini yaxshilash va o‘z maqsadlariga erishish imkonini beradigan yangi ko‘nikmalar, bilimlar va munosabatlarni rivojlantirish uchun imkoniyatga ega emaslar. Ushbu savolga berilgan javoblarni respondentlarning egallab turgan lavozimlari bo‘yicha korrelyatsiya qilinganda, ijobiy javob berganlarning barchasi hokimiyatlarning tashkiliy tuzilmasidagi yuqori va o‘rta bo‘g‘inda rahbar lavozimida ishlaydilar. Salbiy javob berganlarning barchasi quyi bo‘g‘inda ishlaydiganlar.


Inson huquqlari va qonuniy manfaatlari – bu har bir shaxs ega bo‘lgan asosiy huquq va erkinliklardir. Respondentlar o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishi yoki ularni buzilishiga doir savollarga 97,3 %i ijobiy javoblar

berganlar. o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishi yoki ularni buzilishiga doir savollarga berilgan javoblar 2,7%ni tashkil qilgan. Demak, o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishi yoki ularni buzilishiga doir masalalar katta ahamiyatga ega emasligi hokimiyat organlarida mehnat munosabatlariga yoki boshqa huquqbuzarliklar oid inson qadrini oshirishga doir salbiy holatlar mavjud emas.


Tashkilotlarda ishlash jarayonidagi inson qadri bilan bog'liq yana bir masala – bu rahbar va xodim o'rtasidagi munosabatlardagi simpatik va antipatik munosabatda bo'lish. Hokimiyat organlarida ishlayotgan rahbarlar va xodimlarga ushbu masalada ya'ni “Sizni o'z qo'l ostingizdagi xodimlar bilan munosabatingizni qanday deb baholagan bo'lar edingiz?” deb savol berganimizda rahbar lavozimidagi (Boshqarma va bo'lim boshliqlari 350 nafar) respondentlarning 45%i (157 nafar) o'z xodimlariga nisbatan simpatiyasi borligini ya'ni xodimning shaxsiy fazilatlari, ishlash uslubi, bilimi, odob-axloqi va hamfirkrligi kabi sifatleri uchun yoqtirishini bildirgan bo'lsalar 25%i (88 nafar) o'rtacha munosabat deb baholab, o'z xodimlariga nisbatan simpatiyasi ham antipatiyasi ham yo'qligini bildirganlar. 30% (105) rahbar respondentlar ba'zi xodimlariga nisbatan antipatik munosabatda bo'lib, xodimning shaxsiy fazilatlari, ishlash uslubi, bilimi, odob-axloqi va hamfirkrligi lozim darajada emasligi tufayli ular bilan majburan ishlayotganligini hamda fursat bo'lishi bilan ularni ishdan bo'shatishga tayyor ekanligini bildirganlar.

“Sizni bevosita ishlayotgan rahbaringiz bilan munosabatingizni qanday deb baholagan bo'lar edingiz?” Ushbu savolga xodim respondentlarning (Boshqarma va bo'limlardagi bosh mutaxassis va yetakchi mutaxassislar 484 nafar) javoblari tahlil qilinganda, respondentlarning 35%i (170 nafar) rahbarlariga nisbatan simpatiyasi borligini, 15%i (72 nafar) o'rtacha munosabatda ya'ni simpatiyasi ham antipatiyasi ham yo'qligini bildirganlar. 50% (242 nafar) xodim respondentlar o'z rahbarlariga nisbatan antipatik munosabatda ekanligini ya'ni rahbarning shaxsiy fazilatlari, ishlash uslubi, bilimi, odob-axloqi va hamfirkrligi kabi sifatleri past darajada deb baholaganlar. Demak, simpatik munosabatlar o'rtacha 30%ni, o'rtacha yoqtirish yoki yoqtirmaslik darajasidan tashqari munosabatlar 30%ni tashkil qilgan bo'lsa, antipatik munosabatlar 40%ni tashkil qildi. (Qarang: 3.1.9-rasm)

**Boshqarma va bo'lim boshliqlarining javoblari
(350 nafar)**



Boshqarma va bo'limlardagi bosh mutaxassis va yetakchi mutaxassislar javoblari (484 nafar)



3.1.9-rasm. Respondentlarning Sizni o'z qo'l ostingizdagi xodimlar bilan munosabatingizni qanday deb baholagan bo'lar edingiz?" va "Sizni bevosita ishlayotgan rahbaringiz bilan munosabatingizni qanday deb baholagan bo'lar edingiz?" degan savolga javoblari (son va foiz hisobida)

Dissertant tomonidan o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalari viloyat, tuman va shahar hokimliklarida ishlayotgan rahbarlar va xodimlarida inson qadrini yuksaltirish mexanizmlarining regulyativ funksiyalarini takomillashtirish xizmat qilishi mumkin bo'lgan takliflarni berish imkonini berdi. Jumladan:

Birinchidan, hokimiyatlarga aniq maqsadi bo'lmagan va boshqa joylardan ish qidirayotgan 36,9% xodimlar maqsadini to'g'ri shakllantirish orqali ularda o'z qadrini yuksaltirish va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish istagi shakllantirish mumkin;

ikkinchidan, hokimiyatlarda ishlayotgan 20% boshqa millat vakillari boshqa madaniyati va diniy e'tiqodda bo'lgan xodimlarga nisbatan birdek ya'ni bir davlat fuqarosi kabi munosabatda bo'lish hokimiyatlardagi ma'naviy va ijtimoiy muhitni yaxshilashga va ularni mehnat karyerasidagi to'siqlarni bartaraf qilishga xizmat qilishi mumkin;

uchinchidan, hokimiyat xodimlarining 23,5 foizi o'z hayotini yaxshilash va o'z maqsadlariga erishish imkonini beradigan yangi ko'nikmalar, bilimlar va munosabatlarni rivojlantirish uchun imkoniyatga ega emasliklarni inobatga olgan xolda ularni ham oliy ma'lumotli bo'lish, malakasini oshirish va stajirovkalar yuborish masalasini hokimlar tomonidan ijobiy hal qilish lozim;

to'rtinchidan, 37% foiz hokimlik xodimlari hokimiyatlarda resurslar, imkoniyatlar va imtiyozlarni adolatli taqsimlash borasida ham muammolarni inobatga olgan xolda aytish mumkinki, agar ushbu holat to'liq bartaraf etilsa va adolatli yo'lga qo'yilsa hokimiyat tizimida ishlovchi barcha xodimlar qadrini oshirishga to'sqinlik qiluvchi omillar bartaraf etilgan bo'lar edi;

beshinchidan, hokimiyatlardagi rahbar va xodim o'rtasidagi yuqori simpatik munosabatlar o'rtacha 30%ni, yoqtirish yoki yoqtirmaslik darajasidan tashqari o'rtacha munosabatlar 30%ni tashkil qilgan bo'lsa, antipatik munosabatlar esa, 40%ni tashkil qilayotganligi inobatga olgan xolda ushbu holatni 80ga 20 holatiga keltirmaguncha ish samaradorini oshirish imkoni bo'lmaydi deb ta'riflash mumkin;

oltinchidan, hokimiyat tizimida ishlash jarayonida qiyinchiliklarga bardoshlilik, chidamlilik, stresslarni boshqarish kabi sharoitlarga moslashish ko'nikmasi shakllantirish uchun rahbarlar va xodimlarda o'z vatanini sevish, kuchli fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, mamlakat rahbari siyosatini to'g'ri anglash, qonunni hurmat qilish va qonunga rioya qilish, har bir masalaga ilmiy yondashish uchun ilm va yangi uslublarni doimiy o'rganib borish, hamkasblarni hurmat qilish, xodimlarga nisbatan mehrli bo'lish, o'z oilasini qadrlash va aholi bilan yoki xodimlar bilan muloqot qilishda inklyuzivlik tamoyillariga e'tiborli bo'lish kabi sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar, uchrashuvlar va treninglarni doimiy ravish olib borish lozim.

Ikkinchi paragrafdagi dissertantning inson qadrini yuksaltirishning institutsional asoslarini takomillashtirish imkoniyatlari yuzasidan takliflari

keltirilgan bo‘lib unda, Inson qadrini yuksaltirishning institutsional asoslarini takomillashtirishda institutsional mexanizmlar bevosita ahamiyatga ega. Inson qadrini yuksaltirishning institutsional asoslarini takomillashtirish borasida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, institutsional mexanizmlarning asosiy tarkibiy qismlari bevosita qoidalar va normalar sifatida talqin etilishi lozim. Bu ishtirokchilarning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi rasmiy va norasmiy qoidalarni unifikatsiya qilib yagona norma shakliga keltirishi mumkin.

Ikkinchidan, ijtimoiy funksiyalarni bajaruvchi davlat va nodavlat notijorat tashkilotlar, sotsial institutlar jamiyatda ishlab chiqaruvchi va biznes tuzilmalari tomonidan bir xilda ifodalanishi lozim.

Uchinchidan, jamiyatda barcha fuqarolar uchun resurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, sotsial institutlar ishtirokchilarning imkoniyatlari va xatti-harakatlariga mos ravishda o‘z xizmatlari tashkil qilish. Shuningdek, loyihalarni moliyalashtirish, axborot olish va tarqatish, texnologiyalarni iste’molchilar imkoniyatlariga moslashtirish bir tarafdin fuqarolar hayotini farovonlashtirsa, boshqa tarafdin fuqarolarni davlat va jamiyatga nisbatan ishonchini ortishiga xizmat qilishi mumkin.

Inson qadrini yuksaltirishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish borasida:

- siyosiy institutlar: parlamentlar, sudlar, siyosiy hayotni tartibga soluvchi va turli darajalarda qarorlar qabul qilish mexanizmini yanada soddalashtirish;

- iqtisodiy institutlar: banklar, moliya bozorlari, iqtisodiyotning faoliyatini ta’minlaydigan va ishtirokchilarning huquqlarini himoya qiladigan huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash.

- ijtimoiy institutlar: oila, ta’lim, bandlik tashkilotlari, sog‘liqni saqlash, sport muassasalari, ijtimoiy himoya qilish bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlararo munosabatlar va hamkorlikni tartibga soluvchi “Ijtimoiy ta’minot kodeksini” ishlab chiqish. Inson qadrini yuksaltirishning institutsional asoslari va mexanizmlarini takomillashtirish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- barqarorlik va oldindan anglashuv: ishtirokchilar o‘z harakatlarini rejalashtirishlari mumkin bo‘lgan barqaror muhit yaratishga yordam beradi.

- mojaroni boshqarish: institutlar ijtimoiy uyg‘unlikka hissa qo‘shadigan nizolar va nizolarni hal qilish mexanizmlarini ta’minlaydi.

- rivojlanishni rag‘batlantirish: samarali institutlar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga hissa qo‘shishi, innovatsiya va investitsiyalar uchun sharoit yaratishi mumkin.

Bobning uchinchi paragrafida inson qadrini rivojlantirish jarayonlarining sotsial prognostik tahlil qilishning ijtimoiy ahamiyati ochib berilgan bo‘lib, unda Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy – ijtimoiy prognozashtirish-bu, o‘tmishni, hozirgi zamonning rivojlanish qonuniyatlari, tendensiyalariga asoslangan holatda kelajakni oldindan ilmiy bilish va istiqboldagi rivojlanish maqsadlarini

va vazifalarini aniqlashdan iborat²⁶. Sotsiologiyada esa, prognozlash – o‘tmishdagi, hozirgi ijtimoiy jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlari, o‘zgarishlari va tendensiyalarini maxsus sotsiometrik tadqiqotlar natijalariga asoslangan holatda kelajakda yuz berishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy hodisalarni ilmiy asoslash va istiqbolda yuz berishi mumkin bo‘lgan salbiy holatlarni profilaktika qilishga doir maqsadlar va vazifalarni belgilashdir.

Sotsial prognozning asosiy xususiyati shundan iboratki, har qanday oqilona prognostik model uchun ikkita mezon kerak. Bunda, ijtimoiy hodisalarning xususiyatlarini baholash, shu bilan birga, aniqlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy yondashuvlar bilimning biror sohasiga oid asosiy g‘oyalarni tizimini, voqelik qonuniyatlari va undagi muhim aloqalar haqida bir butun tasavvur beradigan bilim shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Nazariya borliqning muayyan sohasiga oid bo‘lgan tajribalardan umumlashtirilgan ma’lumotlar asosida kelib chiqadi. Ilmiy bilishda nazariyaning asosiy vazifasi tajribalar bergan dalillarni izohlash, shu bilan birga, voqea va hodisalarning mohiyatiga chuqurroq kirib borish, yuzaga keladigan yangi voqea va hodisalarni oldindan ko‘ra olishdan iborat.

Inson qadrini rivojlantirish bilan bog‘liq jarayonlarni prognozlash bu bevosita masalaga tizimli yondashuv, kelajakni tahlil qilish orqali bashorat qilish, o‘zgarishlarni boshqarish, mavjud holatni tizimli tahlil qilish, siyosiy jarayonlarni hamda rasmiy, me’yoriy-huquqiy hujjatlarni kontent tahlil qilish, jamoatchilik fikrini o‘rganib borish muhim ahamiyatga ega²⁷. Ushbu jarayonlarning prognozashtirilishi insonlarning huquqlari va qadriyatlarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni ta’minlash va barqaror rivojlanishga erishishga yordam beradi.

XULOSA

“Inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy davlat mexanizmlarining regulativ funksiyasini rivojlantirish” mavzusida olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar ilgari suriladi:

1. Ijtimoiy davlat barpo etish va inson qadrini yuksaltirishga oid ilk ta’limotlar Yunon faylasuflari Suqrot, Aflotun va Aristotel tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lsa, Movarounnahrda Zardushtiylikning Avesto kitobida ijtimoiy davlat va inson qadrini yuksaltirishga doir masalalar tilga olingan. Sharq mutafakkirlaridan Forobiyning “Fozil odamlar shahri”, Beruniyning “Hindiston” va “Qadimgi ajdodlardan qolgan yodgorliklar”, Ibn Sinoning “Kitob ash-Shifo”, Ibn Xaldunning “Muqaddima”, Alisher Navoiyning “Vaqfiya” va “Mahbub ul-qulub”, Amir Temurning “Temur tuzuklari” kitoblarida ijtimoiy davlat barpo etishning tartibotlari mufassal bayon qilingan. G‘arbda XIV-XVI asrlarda X.Grotsiy, I.Kant, T.Xobbs, J.Lokk, J.S.Mill, X.Marshal tomonidan G‘arbiy Yevropada ijtimoiy davlat tamoyillarini davlat boshqaruviga uyg‘unlashtirish borasidagi haqida ilk nazariyalar shakllangan.

2. Ijtimoiy davlat tushunchasini G‘arb olimlari ijtimoiy davlatning shakllanishi haqidagi g‘oyalarning paydo bo‘lishini T.Gobbs va J.Lokk nazariyalari

²⁶ Ирматов М.М., Хайдаров М.Т. «Иктисодий ва ижтимоий ривожланишни прогнозаштириш» — (Ўқув қўлланма) — Т.: ТДИУ, 2005 йил — 3 бет.

²⁷ Karimov B.Sh. Shaxslararo mehrlilik darajasini tizimli sotsiologik assessmentlash orqali optimallashtirish. Sos. fan. dokt. dis. O‘z.Res.Prez.huz.DBA. – Toshkent: 2021. – B.89.

bilan bog'lasalarda, ammo, bu nazariyalar 1648-yilgi ingliz inqilobi va 1688-yilgi shonli inqilobni tushunish mahsuli bo'lgan deb biladilar. Aynan ijtimoiy davlat tushunchasi aniq iboralarida bo'lmasada, ijtimoiy davlatga xos bo'lgan g'oyalari Sharqda qadimda Zardushtiylik dinining g'oyalari, so'ngra Islom dinining kirib kelishi bilan Qur'oni Karim, Hadisi Shariflar va shariat ahkomlarida ijtimoiy davlat tartibotlari diniy g'oyalar bilan yanada rivojlangan. Sharqda ijtimoiy davlat barpo etish g'oyasi, inson qadrini yuksaltirish borasidagi g'oyalar G'arbdan V asr oldin to'liq tatbiq etilgan.

3. Inson qadrini oshirish murakkab va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u inson rivojlanishining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va psixologik jihatlarni o'z ichiga oladi. Bularga inson qadr-qimmati, ijtimoiy kelib chiqishi, madaniyati, dini va e'tiqodidan qat'iy nazar tolerant munosabatda bo'lish, o'z-o'zini aktuallashtirish, shaxsiy o'sish, ijtimoiy adolat, inson huquqlarini ustunligi, hissiy intellekt o'z-o'zidan va boshqalardagi his-tuyg'ularni tan olish va tushunish, empatiya, inson o'zini fuqaro va shaxs sifatida anglashi, bardoshlilik va chidamlilik, shaxs hayotini farovonlashtirish kabi majmui tushuniladi.

4. Ijtimoiy davlat zaruriy hodisadir. U jamiyatda sinflar, qatlamlar, ijtimoiy guruhlar va millatlar o'rtasidagi munosabatlarni mo'tadilligini ta'minlaydi. Ijtimoiy davlat sharoitida davlat o'z fuqarolarining munosib turmush darajasini ta'minlashi, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga alohida g'amxo'rlik ko'rsatishi, ta'lim, sog'liqni saqlash, dam olish va odamlarning kundalik turmushi muammolariga katta e'tibor qaratadi.

5. Inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy davlat mexanizmlarining regulativ funksiyasini rivojlantirish ijtimoiy ratsional faoliyatni yuzaga keltirish bilan birga ularda vatanparvarlik va ma'naviy-iqtisodiy kamolotga erishini ham rag'batlantiradi. Shuningdek, shaxsga nisbatan doimiy o'zgaruvchan jarayon sifatida, "o'rgatish", "maslahat berish", "yo'naltirish", "o'rganish" kabi munosabatlar tizimida virtual va an'anaviy tarzda amalga oshirib, yangi zamonaviy yondashuvlarni shakllantiradi.

6. Ijtimoiy davlat sharoitida inson qadrini yuksaltirish mexanizmlarining regulativ funksiyalari takomillashtirish borasida Germaniya, Yaponiya, Kanadaning ilg'or tajribalarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish mumkin. Ushbu davlatlarning ilg'or tajribalarida ijtimoiy jarayonlarni boshqarish, yo'naltirish, moslashtirish, to'g'rilash kabilarni o'z ichiga olib, inson qadrini yuksaltirishda jamiyat, ijtimoiy va siyosiy institutlarning hamjihatlikda faoliyat olib borishi hamda har bir insonni tashqi muhit o'zgarishlariga moslashuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirishga imkon yaratadi.

7. Inson qadrini ulug'langan darajasi mamlakat fuqarolarining birlamchi ehtiyojlarning qondirilganlik holati bilan ham o'lchanishni hisobga olib, bir tomondan davlat va jamiyat o'rtasida ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlaydi, ikkinchi tarafdin esa inson qadri yuksalishiga va farovon turmush tarziga yo'l ochadi. Ijtimoiy birdamlik va hamjihatlikni shakllantirishni nafaqat davlat va jamiyat faoliyatining markaziy bo'g'iniga aylantirish lozim.

8. Ijtimoiy hamjihatlikning asosiy maqsadi – bu fuqarolarning ijtimoiy kapitalini mustahkamlashdan iborat bo‘lishi lozim. Bu holat insonning ijtimoiy munosabatlar va shaxsiy hayotiy munosabatlardan tashqari hamjamiyatdagi barcha umumiy masalalarda ishtirok yetishni ham qamrab oladi. Jamoatchilik fikri ijtimoiy davlatda inson qadrini yuksaltirishning eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Jamoatchilik fikri orqali ijtimoiy hamjihatlikni shakllantirish, amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli aholining turmush tarzini ijobiy o‘zgarayotganligi, ma’naviy, kasbiy o‘sish kabi fikrlar va munosabatlar shakllanadi. Shu bilan birga fuqarolarda siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy va ekologik bilimlarini oshiradi.

9. Mahalliy hokimiyat xodimlarining deyarli chorak qismi o‘z hayotini yaxshilash va o‘z maqsadlariga erishish imkonini beradigan yangi ko‘nikmalar, bilimlar va munosabatlarni rivojlantirish uchun imkoniyatga ega emaslar. Xodimlarni oliy ta’lim tashkilotlariga tavsiya qilish orqali o‘qitish, malakasini oshirish va stajirovkalar yuborish masalasini hokimlar tomonidan hal qilinishi lozim bo‘lgan masaladir. hokimiyatlardagi rahbar va xodim o‘rtasidagi yuqori simpatik munosabatlar o‘rtacha 30%ni, antipatik munosabatlar esa, 40%ni tashkil qilayotganligini hisobga olgan xolda ushbu holatni V. Pareto nazariysi asosida 80ga 20 holatiga keltirmaguncha ish samaradorini oshirish imkoni bo‘lmaydi.

10. Inson qadrini rivojlantirish jarayonlarining sotsial prognostik tahlil qilish uchun masalaga tizimli yondashuv, prognozlashda tizimli yondashuv hamda tizimlarni tasniflash, normativ-huquqiy hujjatlarni kontent tahlil qilish, sohalarga doir sotsiologik tadqiqot natijalarini tahlil qilish lozim bo‘ladi. Shuningdek, inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy davlat mexanizmlarining regulyativ funksiyasini qadriyat sifatida anglash ijtimoiy me’yorlar barqarorligini ta’minlash barobarida, ratsional ijtimoiy-shaxsiy tafakkur va pozitiv faoliyat trayektoriyasini ham shakllantiradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.04/2025.27.12.S.01.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АКАДЕМИИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ
ПОЛИТИКИ И УПРАВЛЕНИЯ ПРИ ПРЕЗИДЕНТЕ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

АКАДЕМИЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ

АЪЗАМОВА КУМУШ САЛИМ КИЗИ

**РАЗВИТИЕ РЕГУЛЯТИВНОЙ ФУНКЦИИ МЕХАНИЗМОВ
СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА В ПОВЫШЕНИИ
ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ДОСТОЙНОСТВА**

22.00.02. – Социальная структура, социальные институты и образ жизни

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по социологическим наукам

Ташкент — 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по социологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за номером B2023.2.PhD/S140.

Диссертация выполнена в Академии государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме) размещен на веб-странице Научного совета (www.dsba.uz), на сайте Национального агентства информации Узбекистана (www.uza.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyounet» (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель:

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, профессор

Официальные оппоненты

Гаффарова Мавлюда Курбанбаевна
доктор социологических наук,

Мухтаров Азамат
доктор философских наук, профессор

Ведущая организация:

**Республиканский центр изучения
общественного мнения «Ижтимоий фикр»**

Защита диссертации состоится «14» августа 2026 года в 14:00 часов на заседании Научного совета DSc.04/2025.27.12.S.01.02 при Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан. (Адрес: 100174, г. Ташкент, улица Ислама Каримова, 45). Административное здание Академия государственного управления при Президенте Республики Узбекистан 2 этаж, 202 зал конференций. Тел.:0(371) 232-60-47, факс 0(371)239-17-83, e-mail:info@dba.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (зарегистрирована за № 388). Адрес: 100066, г. Ташкент, улица Ислама Каримова, 45. Административное здание, 2 этаж, кабинет 202. Тел.: 0(371) 232-60-47, факс:0(371) 239-17-83.

Автореферат диссертации разослан «04» августа 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 04/08 от «04» августа 2026 года.)

М.Б.Бекмуродов

Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор. социологических наук,
профессор

Ш.М. Содикова

Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор. социологических наук,
профессор

Т.Б.Матибаев

Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
научных степеней, доктор.
социологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской (PhD) диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Укрепление фактора социального государства в мировом масштабе превращает дальнейшее совершенствование механизмов эффективной защиты интересов человека, его прав и свобод в актуальную задачу. Международные и национальные усилия в этом направлении всё сильнее усиливают потребность в развитии регулятивной функции институтов социального государства. Такие международные инициативы как стратегия Организации Объединенных Наций «Молодёжь-2030»¹, «Стратегия в области прав человека», «Цели и задачи в сфере устойчивого развития», «Стратегия достижения гендерного равенства», «Концепция развития гражданского общества», «Концепция в сфере межнациональных отношений» становятся приоритетными целями для многих государств мира.

В ведущих научных центрах мира рассматриваются такие первоочередные задачи, как снижение рисков обнищания населения, уменьшение уровня социального неравенства в обществе, широкое внедрение принципов социальной справедливости в государственном и общественном управлении, соблюдение принципов социального государства. В настоящее время многие государства закрепляют в своих конституциях положения о гармоничном интегрировании принципов социального государства в систему государственного и общественного управления. При этом человеческий фактор является центральным аспектом и высшей ценностью феномена социального государства, что делает данную проблему особенно актуальной.

В Новом Узбекистане ценность и достоинство человека выделяются как высшая ценность, в 2017–2025 годах во всех принятых нормативно-правовых актах поднимаются вопросы повышения человеческого достоинства, обеспечения неприкосновенности личности и ее собственности, коренной реформы системы социальной защиты, создания инклюзивного общества, внимания к каждому человеку, расширения возможностей для реализации потенциала каждого гражданина, внедрения обновленной системы в области образования, здравоохранения, занятости и спорта, что признается международным сообществом как способствующее улучшению социальной жизни населения. «Для Нового Узбекистана, который мы строим, ценность человека и интересы народа превыше всего. Поэтому повышение человеческого достоинства должно стать неотъемлемой конституционной обязанностью и приоритетной задачей органов государственной власти»².

В этой связи исследование вопросов развития регулятивной функции механизмов социального государства в возвышении человеческого капитала как целостной научной проблемы с социологической точки зрения имеет важное значение.

¹ About Youth 2030, the UN Youth Strategy. URL: <https://www.un.org/youthaffairs/en/youth/2030/about>

² Мирзиёев, Шавкат Миромонович. 6-том. Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегияси асосида демократик ислохотлар йўлини қатъий давом эттирамиз. М 54 – Тошкент: “Ozbekiston” нашриёти, 2023. – Б.485.

Данный диссертационный труд в определенной мере будет способствовать выполнению задач, установленных Конституции Республики Узбекистан, Закона Республики Узбекистан «Об образовании», Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении национальной стратегии Республики Узбекистан по правам человека», Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии «Узбекистан – 2030», Указ Президента Республики Узбекистан «О государственной программе по реализации стратегии развития нового Узбекистана на 2022—2026 годы в «Год заботы о человеке и качественного образования» и другими нормативно-правовыми актами, связанными с темой.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках программы приоритетного направления развития науки и технологий республики 1. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном и духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Исходя из истории государственности, неравенство в обществе и разнообразие управления государством и обществом стало причиной различного восприятия человеческой ценности. По этой причине вопрос повышения человеческой ценности и создания социального государства с давних времен рассматривался как актуальная проблема для человечества. Первые учения о человеке, его ценности и социально-нравственном облике общества были отражены в «Авесте», а также античными философами Сократ, Платон, Аристотель и Абу Наср Форобий, Абу Райхон Беруний, Абу Али ибн Сино, Абу Хамид Газзали, Закарий ар-Рази, Алишер Навоий и Захириддин Мухаммад Бобур, подробно изложили свои мысли в своих произведениях³.

В трудах зарубежных ученых В.Гегеля, И.Канта, М.Шелера, Э.Фромма, З.Фрейда освещены возможности улучшения человеческих отношений, исходя из близкой структурной части феномена социального государства⁴.

